ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Ochilova Munira Uktamovna

O'zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

BANK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBSINI QO'LLASH YO'LLARI (AQSH,XITOY VA YAPONIYA TAJRIBALARI ASOSIDA)

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank tizimini takomillashtirishda ilg'or xorijiy davlatlar, xususan, AQSH, Xitoy va Yaponiya bank tizimlarining rivojlanish xususiyatlari, ularning moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish va bank xizmatlari samaradorligini oshirishdagi tajribasini o'rganish va ularni milliy bank tizimiga joriy etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu mamlakatlar tajribasini O'zbekiston bank tizimiga moslashtirish imkoniyatlari va ustuvor yo'nalishlarini milliy bank tizmiga joriy etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank tizimi, xorijiy tajriba, AQSH bank tizimi, Xitoy bank tizimi, Yaponiya bank tizimi, raqamli bank xizmatlari, moliyaviy barqarorlik, bank islohotlari, innovatsiyalar, fintech.

Annotatsiya. V dannoy state analiziruyutsya osobennosti razvitiya bankovskix sistem peredovыx zarubejnыx stran, v chastnosti SShA, Kitaya i Yaponii, izuchenie ix opыta v obespechenii finansovoy stabilnosti, vnedrenii sifrovыx texnologiy i povыshenii effektivnosti bankovskix uslug, a takje puti ix vnedreniya v natsionalnuyu bankovskuyu sistemu. Takje razrabotanы prakticheskie predlojeniya i rekomendatsii po vnedreniyu v natsionalnuyu bankovskuyu sistemu vozmojnostey i prioritetov adaptatsii opыta etix stran.

Klyuchevыe slova: bankovskaya sistema, zarubejnыy opыt, bankovskaya sistema SShA, bankovskaya sistema Kitaya, bankovskaya sistema Yaponii, sifrovыe bankovskie uslugi, finansovaya ustoychivost, bankovskie reformы, innovatsii, fintex.

Abstract. This article analyzes the developmental characteristics of the banking systems of advanced foreign countries, particularly the USA, China, and Japan, examining their experience in ensuring financial stability, implementing digital technologies, and increasing the efficiency of banking services, as well as ways to implement them into the national banking system. Practical proposals and recommendations have also been developed for implementing the opportunities and priorities of adapting these countries' experience into the national banking system.

Keywords: banking system, foreign experience, US banking system, Chinese banking system, Japanese banking system, digital banking services, financial stability, banking reforms, innovation, fintech.

Kirish

So'nggi yillarda global moliya tizimida bank sektorini modernizatsiya qilish va uning barqarorligini ta'minlash masalasi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzi, xalqaro reytinglardagi o'rni tobora mustahkamlanib

bormoqda. Xususan, yetakchi xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren reytingini “BB -”dan “BB” pog‘onasiga ko‘tardi.

Bu gaplar ko‘pchilikka oddiy bir fakt bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin, iqtisodchilar, investor va bankirlar gap naqadar katta natijalar haqida borayotganini juda yaxshi tushunib turibdi. Birgina ana shu o‘zgarish tufayli chetdan jalb qilinadigan resurslarning foiz stavkasi 1-1,5 punktga pasayib, tashqi qarz xarajati yiliga kamida 300 million dollarga kamayadi.

Shuningdek, Jahon banki e’lon qilib boradigan Davlatlarning texnologik yetuklik indeksida O‘zbekiston 71 pog‘ona yuqori ko‘tarilib, dunyoning top-10 ta mamlakati qatoridan joy oldi”.[1]

Jahon bank tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida raqamlashtirish jarayonlari, moliyaviy texnologiyalar (fintech)ning keng joriy etilishi hamda bank xizmatlarining diversifikatsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2025-yil holatiga ko‘ra, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida markaziy banklar balanslari tarixiy jihatdan yuqori darajada qolmoqda. Yevrohudud — dunyodagi eng yirik markaziy banklar bloke sifatida tan olinmoqda. Yevropa banklari Markaziy banklarining jami aktivlari 7,13 trillion dollarni tashkil etgan. Yevrohududdan keyin reytingda Xitoy (6,62 trln dollar) va AQSh (6,58 trln dollar) egallab kelmoqda.Yaponiya ham an’anaviy ravishda yuqori o‘rinda turadi (4,51 trln dollar). Mamlakat markaziy banki balansi o‘ta yumshoq pul-kredit siyosati sabab doimiy ravishda o‘sib bormoqda.[2]

Bundan ko’rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarning, xususan AQSH, Xitoy va Yaponiya bank tizimlari yuqori darajada rivojlanganligi, innovatsion yondashuvlar va samarali boshqaruv mexanizmlari bilan ajralib turadi. AQSH bank tizimi kuchli kapital bozori, yuqori darajadagi raqobat va ilg‘or moliyaviy instrumentlari bilan ajralib tursa, Xitoy bank tizimi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan yirik moliyaviy institutlar va tezkor raqamli transformatsiya bilan tavsiflanadi. Yaponiya bank tizimi esa barqarorlik, uzoq muddatli moliyalashtirish va past riskli operatsiyalarni ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirgan.

Bugungi kunda bank tizimidagi xalqaro tajriba va milliy bank tizimini samarali rivojlantirishda ilg‘or xorijiy amaliyotlarni o‘rganish va ularni mamalakat bank tizimiga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamli bank xizmatlari, risklarni boshqarish tizimlari, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash mexanizmlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omillardan bo’lib hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Bank tizimini rivojlantirish va takomillashtirish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, bu borada turli mamlakatlar tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, rivojlangan davlatlar bank tizimining faoliyati, ularning moliyaviy barqarorligi va innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda tahlil qilingan.

Xalqaro moliya institutlari vakillari(ekspertlari) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank tizimini rivojlantirishda raqamlashtirish, moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va risklarni samarali boshqarish asosiy omillar sifatida ko‘rsatiladi. Xususan, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi hisobotlarida bank tizimining barqarorligi kapital yetarliligi, likvidlik darajasi va nazorat mexanizmlarining samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi.

Bank tizimi va uning iqtisodiyotdagi o‘rni masalasi bo‘yicha ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, J. M. Keyns, I. Fisher, M. Fridman kabi g‘arbiy iqtisodchilar pul-kredit siyosati, banklarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri, kredit portfelini shakllantirish va boshqarishning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning asarlarida bank faoliyatining iqtisodiy o‘sishga ta’siri, moliyaviy vositachilikning samaradorligi va inflyatsiyani jilovlashda pul-kredit mexanizmlarining o‘rni keng yoritilgan.

O‘zbekistonlik olimlardan A. Vahobov, B.G‘aniev B, Sh. Abdullaeva, Sh. Mustafoqulov, X. Abdukarimov, A. Abduqodirov A, B. Qudratov. F. Normatova, S. Samatov va boshqa tadqiqotchilar milliy bank tizimi rivoji, banklarning moliyaviy barqarorligi, kredit siyosati va risklarni boshqarish masalalarini chuqur o‘rganganlar. Ularning ilmiy ishlari tijorat banklari faoliyatining samaradorligini baholash, aktiv va passivlarni boshqarish, kreditlash jarayonida yuzaga keladigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini nazariy jihatdan asoslab bergan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi uchun mustahkam nazariy asoslar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, amaliyotda hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Jumladan, AQSH bank tizimi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda, asosan moliya bozorining chuqurligi, kuchli institutsional baza va yuqori darajadagi raqobat bank sektorining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Shuning uchun, ilmiy manbalarning ko’pchilik qismida AQSH bank tizimining kapital bozorlariga integratsiyalashganligi va innovatsion moliyaviy instrumentlarning keng qo‘llanilish tajribasidan foydalanish ko’rsatib o’tilgan.

Xitoy bank tizimining rivojlanish bosqichlari va xozirgi kundagi holatini o’rganish bo’yicha tadqiqot olib borgan ilmiy izlanuvchilar o’z ishlarida Xitoy bank tizimida davlatning faol ishtiroki va raqamli moliya xizmatlarining keng joriy etilishi bank tizimi samaradorligini oshirgan asosiy omil sifatida ko‘rsatilgan. Xususan, mobil to‘lovlar ulushining 80 foizdan ortiq ekanligi buning yaqqol misollaridan biridir.[3] Shuni ta’kidlash lozimki, jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bank tizimini rivojlantirishda muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etishdir.

Yaponiya bank tizimining rivojlanish asoslaridan bo’lib esa, mamlakatdagi bank tizimining takomillashgan konservativ boshqaruv siyosati, past risk darajasi va uzoq muddatli moliyalashtirish modeli bilan ajralib turishi qayd etiladi. Bunda, Yaponiya bank tizimida risklarni boshqarish darajasi yuqori bo‘lib, bu moliyaviy inqirozlarga chidamlilikni ta’minlaydi.[4]

Olib borilgan ilmiy va amaliy izlanishlar asosida aytish mumkinki, jaxon bank tizimida raqamlashtirish va fintech texnologiyalarini joriy etish zamonaviy bank xizmatlari samaradorligini oshirish bilan birga banklarning operatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda ularning daromadliligini oshirishga imkon yaratadi.[5]

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, bank tizimini rivojlantirishda uchta asosiy yo‘nalish muhim hisoblanadi: raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish, bank risklarini o’z vaqtida aaniqlash hamda ularni samarali boshqarish tizimi, va nihoyat bank tizimida samarali raqobat muhitini shakllantirishdir.

Umumun olganda, yana shuni ta’dilash lozimki, xorijiy bank tizimini isloh qilish jarayonida regulyator organlarning samarali faoliyati muhim ahamiyatga ega. Masalan, Yevropa Markaziy banki yoki AQSh Federal rezerv tizimi bank sektorini qat’iy nazorat qiladi, moliyaviy intizomni ta’minlaydi va inqirozli vaziyatlarda tizimni qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘radi. Bunday mexanizmlarni milliy amaliyotga moslashtirish O‘zbekiston bank tizimi uchun ham ijobiy natijalar berishi mumkin. Ayniqsa, moliyaviy intizomni mustahkamlash, shaffoflikni oshirish va korrupsiya holatlarining oldini olishda xalqaro tajriba juda muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy maqola bank tizimini takomillashtirishda ilg’or xorijiy davlatlar tajribsini qo’llash yo’llari ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo’lib, unda nazariy, empirik va qiyosiy yondashuvlar uyg’unlashtirilgan. uslubiy yondashuvni izchil tashkil etish orqali nafaqat tijorat banklari faoliyatini tashkil etish mohiyati, balki uni samarali boshqarish mexanizmlari bo’yicha qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ishlari tadqiq etgan va ularga nisbatan o’z yondoshuvlarini shakllantirishgan. Mazkur holarga yanada yaqinroq yondoshadigan bo’lsak, deyarli barcha holatlarda mamlakat tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyati, ushbu bozor xususidagi fikr va yondoshuvlari mazmunan bir – biriga yaqin bo’lsada, biroq ular shaklan biri

biridan keskin farq qiladi. Muallif mavjud tajribalarni o'rganish va ular orqali qiyosiy tahlil o'tkazish natijasida tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar bergan.

Tahlil va natijalar

Demak, dunyo bank sohasi so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Banklar o'z strategiyalari va biznes yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladigan ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Asosiy omillardan biri foiz stavkalarining o'zgarish davridir. Bir tomondan, u daromadlarning o'sishi uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etsa, boshqa tomondan, banklardan moslashuvchanlik va moslashuvchanlikni talab qiladi. Raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun moliyaviy muassasalar o'z biznes modellarini o'zgartirishlari kerak, bu ayniqsa iqtisodiy o'sishning sustligi va jahon bozorlaridagi noaniqlik sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'rib o'tilgan holatlar zamonaviy sharoitda bank tizimini takomillashtirishda ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish zamonaviy moliya tizimining muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini isbotlamoqda. Ushbu jarayonda AQSH, Xitoy va Yaponiya kabi davlatlarning bank tizimlarida yuqori boshqaruv samaradorligi, tizimda innovatsion rivojlanishning ustunligi hamdabank faoliyatining moliyaviy barqarorligi bilan ajralib turadi.

Agar, AQSH bank tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mazkur davlat o'zining dunyodagi eng yirik moliya tizimlaridan biri ekanligi bilan ajratilib turadi. 2024-yil yakunlariga ko'ra AQSh bank tizimining aktivlari hajmi 23 trillion AQSh dollaridan oshgan.[6] AQSH bank tizimi kuchli raqobat muhiti va rivojlangan kapital bozorlari bilan tavsiflanadi. AQShda ko'p tarmoqli tijorat banklari bilan bir qatorda investitsiya banklari va boshqa nobank moliyaviy institutlar faoliyat yuritadi. Hozirda AQSHda fintech sektori jadal rivojlanib, 2024-yilda raqamli bank xizmatlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar ulushi 65 foizdan oshgan.[6] Shu bilan birga, Federal rezerv tizimi tomonidan amalga oshiriladigan qat'iy nazorat va monetar siyosat bank tizimining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.Ushbu jarayonlar o'z navbatida mamlakatda bank xizmatlarining samaradorligi va qulayligini sezilarli darajada oshirga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Ilmiy tadqiqot olib borish davrida Xitoy bank tizimi dunyodagi eng yirik bank aktivlariga ega bank tizimlaridan biri aylanib dunyoning eng yirik banklari reytingida yetakchilik ushlab turibdi. 2024-yil holatiga ko'ra, Xitoy bank tizimi aktivlari hajmi 60 trillion AQSh dollaridan oshgan. 2025-yilda aktivlari bo'yicha dunyodagi eng yirik banklar reytingini Xitoy moliya institutlari ishonchli tarzda boshqarib, birinchi to'rtlikda ustunlik qilmoqda. Aktivlari $6,3 trln. dollardan oshgan Xitoy sanoat-tijorat banki (ICBC) yetakchi bo'lib qolmoqda. AQSH. Top-10 talikka AQSH (JPMorgan Chase) va Yevropaning eng yirik banklari (HSBC, BNP Paribas) ham kiradi.[7]

Hozirda Xitoyda davlat banklari ustunlik qiladi va ular iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyalashtirishda asosiy rol o'ynaydi. So'nggi yillarda Xitoyda raqamli bank xizmatlari keskin rivojlanib, mobil to'lovlar hajmi yiliga trillionlab dollarni tashkil etmoqda. Masalan, 2023–2024-yillarda mobil to'lovlar ulushi umumiy to'lov tizimining 80 foizidan ortig'ini tashkil etgan.[8] Bu esa Xitoy bank tizimining raqamli transformatsiyada yetakchi ekanini ko'rsatadi.

Keyingi ko'rib chiqadigan bank tizimimiz bu Yaponiya bank tizimining rivojlanish holati hisoblanadi. Yaponiya bank tizimi barqarorlik va konservativ boshqaruv modeli bilan ajralib turadi. 2024-yilda Yaponiya bank tizimi aktivlari hajmi 20 trillion AQSh dollaridan oshgan.[4] Yaponiya banklari uzoq muddatli moliyalashtirish va sanoatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Shuningdek, mamlakatda past foiz siyosati uzoq yillardan buyon amal qilib

kelmoqda, bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Yaponiya bank tizimida risklarni boshqarish darajasi yuqori bo‘lib, moliyaviy inqirozlarga chidamlilik kuchli hisoblanadi.

Mazkur davlatlar tajribasini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, ushbu davlatlar bank tizimlarining rivojlantirishda yuqoridagi uchta asosiy omil muhim rol o’ynamoqda. Bular, birinchidan, bank tizimida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishi,ikkinchidan, bank tizimida raqamli texnologiyalarni, ya’ni moliyaviy texnologiyalar va bank ekotizimlarini joriy etilishi va nihoyat uchinchidan, samarali bank nazorati va risklarni boshqarish tizimi bank operatsiyalarini tezlashtiradi va mijozlarga qulaylik yaratadi natijada banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi, ularning samarali faoliyat yuritishga olib keladi.

O‘zbekiston bank tizimini rivojlantirishda ko’rib o’tilgan davlatlar bank tizimidagi ilg’or tajribalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Xususan, AQSH tajribasi asosida milliy bank tizimi ishtirokchilari bo’lgan banklar o‘rtasida raqobatni kuchaytirish, Xitoy tajribasi asosida raqamli bank xizmatlarini keng joriy etish va Yaponiya tajribasi asosida banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash imkoniyatlari paydo bo’ladi.

Umuman olganda, yetakchi mamlakatlar bank tizimlari tajribasi milliy bank sektorini modernizatsiya qilish, ist’emolchilar talabi asosida bank xizmatlari sifatini oshirish va banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval.

AQSH, Xitoy va Yaponiya bank tizimlarining asosiy ko‘rsatkichlari


(2024 yil yakuni bo’yicha)*

	Ko‘rsatkichlar	**AQSH**	**Xitoy**	**Yaponiya**
	Bank tizimi aktivlari (trln AQSh dollari)	23	60+	20
	Raqamli bank xizmatlari ulushi (%)	65 %	80 %	55 %
	Bank tizimida davlat ulushi (%)	10–15 %	60–70 %	20–30 %
	Moliyaviy barqarorlik darajasi	Yuqori	Yuqori	Juda yuqori
	Asosiy ustun yo‘nalish	Kapital bozori va innovatsiya	Raqamli bank va davlat nazorati	Barqarorlik va uzoq muddatli moliyalashtirish
	Fintech	Jud	Jud	Yuqo

	rivojlanish darajasi	a yuqori	a yuqori	ri
	Raqobat darajasi	Jud a yuqori	O‘rt a	O‘rta

***Izoh:** Jahon banki (2023), IMF (2024), Federal Reserve (2024), People’s Bank of China (2024), Bank of Japan (2024) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2024 yil so’ngida jaxon bank tizimida Xitoy banklari aktivlari hajmi bo‘yicha yetakchi bo‘lib, 60 trillion AQSh dollaridan ortiq ko‘rsatkichga ega. AQSH banklari o’z navbatida kapital bozorining rivojlanganligi va yuqori raqobat muhiti bilan Yaponiya bank tizimi esa barqarorlik va past riskli boshqaruv modeli bilan boshqa davlatlardan farq qiladi.



1-rasm. AQSH, Xitoy va Yaponiya bank tizimlarining rivojlanish darajasi taqqoslanishi (2024 yil)

Izoh: Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF), milliy bank statistik ma’lumotlari hamda zamonaviy moliyaviy tendensiyalar asosida muallif tomonidan umumlashtirildi.

Ushbu rasm AQSH, Xitoy va Yaponiya bank tizimlarining asosiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini kompleks baholash imkonini beradi. Rasmda bank tizimlarining umumiy rivojlanish indeksi, raqamli bank xizmatlaridan foydalanish hamda banklarning moliyaviy barqarorlik va innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. Unda, Xitoy bank tizimi raqamli rivojlanish darajasi bo‘yicha, AQSH bank tizimi esa innovatsion rivojlanish va umumiy samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha, Yaponiya bank tizimi esa moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichi bo‘yicha yuqori natijalarni namoyon etadi.

Ushbu ko’rsatkichlar 2025 yilda dunyoning eng xavfsiz banklari reytingi yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslasha olgan va shu bilan birga o‘z xizmatlari ko‘lamini kengaytira olgan muassasalarni qayd etadi. Ushbu kredit muassasalari maksimal noaniqlik davrida ham o‘zlarining ishonchliligi va izchilligini ko‘rsatdi.

Ammo, jahon bank tizimidagi bugungi vaziyat ularda bir qator jiddiy muammolar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Masalan, YAIM o‘sishi past bo‘lgan hududlar qo‘shimcha bosimga duch kelmoqda, geosiyosiy xatarlar esa o‘sishda davom etmoqda. Bu banklarni yanada ehtiyotkor bo‘lishga va voqealar rivojini diqqat bilan kuzatib borishga majbur qiladi.

Yana bir muhim jihat — bu inflyatsiyaga qarshi kurash. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) prognozlariga ko‘ra, inflyatsiya yaqin ikki yil ichida pasayadi va 2026-yil oxirigacha maqsadli ko‘rsatkichlarga yetadi. Bu ijobiy dinamika bo‘lib, iqtisodiyotni tiklash uchun qulay sharoit yaratishi mumkin[1].[7]

O’zbekiston bank tizimi uchun ham kelajak turli noaniqliklarga to‘la. Ularning ko‘pchiligi yuqori foiz stavkalaridan foydalanib, sof foiz daromadi hisobiga o‘z daromadliligini oshirib kelmoqdalar. Biroq, endi tijorat banklari oldida foiz stavkalari pasayishi va mijozlar depozitlari uchun raqobat kuchayishi sharoitida ushbu holatni saqlab qolish vazifasi turibdi. Demak, faqatgina muvaffaqiyatli banklargina ushbu o‘zgarishlarga moslasha oladi va o‘z mijozlariga ishonchli va sifatli xizmatlarni taqdim etish orqali rivojlanishda davom etadi.

Xulosa va tavsiyalar

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bank tizimini takomillashtirishda ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish va uni milliy amaliyotga moslashtirish zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. AQSH, Xitoy va Yaponiya bank tizimlarining tahlili ushbu mamlakatlarda bank sektorining yuqori samaradorlikka erishishi raqobat muhitining rivojlanganligi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilgani hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan puxta boshqaruv mexanizmlari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Tahlillar asosida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston bank tizimini takomillashtirishda mazkur davlatlar tajribasidan kompleks foydalanish zarur. Bunda banklar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish, moliyaviy nazorat va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralishi lozim. Shu bilan birga, xorijiy tajribalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, institutsional muhit va moliyaviy infratuzilmani hisobga olgan holda moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, bank tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xususan raqamli platformalar, sun’iy intellekt va fintech yechimlardan foydalanish bank xizmatlarining samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash imkonini beradi. Bu esa bank tizimining umumiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotga joriy etish O‘zbekiston bank tizimini modernizatsiya qilish, uning barqarorligini mustahkamlash va xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini chuqurlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari va ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston bank tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb o’ylaymiz:

1

1. Banklar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish zarur. AQSH tajribasidan kelib chiqib, bank sektorida xususiy banklar ulushini oshirish, yangi moliyaviy institutlarni jalb etish va xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirish jarayonlarini tobora takomillashtirish kerak.
2. Keyingi yo’nalish, bu mamlakatda raqamli bank xizmatlarini joriy etish. Mazkur yo’nalishda Xitoy tajribasi asosida mobil bank xizmatlari, onlayn to‘lov tizimlari va fintech platformalarini rivojlantirish orqali bank xizmatlarining ommaviyligini oshirish mumkin bo’ladi.
3. Bank tizimidagi eng dolzarb hal etilishi zarur bo’lgan navbatdagi yo’nalish-bu bank faoliyatidagi risklarni o’z vaqtida aniqlash va ularni tizimli boshqarish bo’yicha qarorlarni qabul qilish tizimini takomillashtirish. Ushbu yo’nalishda Yaponiya banklarining risklarni boshqarish va nazorat qilish tajribasidan kengroq foydalanish zarur.
4. Moliyaviy savodxonlikni oshirish. Xorijiy davlatlar tajribasidan ko‘rinib turibdiki, bank tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun inson kapitalini rivojlantirish, bank xodimlarining kasbiy malakasini oshirish, xalqaro standartlar asosida o‘qitish va qayta tayyorlash masalalari ham alohida ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishda malakali kadrlar asosiy rol o‘ynaydi. Rivojlangan davlatlar banklari o‘z xodimlarini doimiy ravishda o‘qitib boradi, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda trening va seminarlar tashkil etadi. O‘zbekistonda ham bank xodimlari malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ularni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish bank tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.[3]

Shu bilan birga, aholi o‘rtasida bank xizmatlari, raqamli to‘lovlar va moliyaviy boshqaruv bo‘yicha bilimlarni keng targ‘ib qilish orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. https://president.uz/oz/lists/view/8834
2. https://kun.uz/news/2026/01/20/dunyo-markaziy-banklari-jami-aktivlar-boyicha-top-20
3. Sh. Samatov. Bank tizimini takomillashtirishda ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini qo‘llash yo‘llari.// Journal of new century innovations. http://journalss.org/index.php/new. Volume–84_I 188 ssue-1_September-2025
4. Bank of Japan. Financial System Report 2024. Tokyo: Bank of Japan, 2024.
5. OECD. Banking and Financial Markets Statistics 2023. Paris: OECD Publishing, 2023.
6. Federal Reserve System. Annual Report 2023. Washington, DC: Board of Governors of the Federal Reserve System, 2024.
7. https://baike.baidu.com/ru/item/%D0%A2%D0%BE%D0%BF-1000%20%D0%BC%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D1%8B%D1%85%20%D0%B1%D0%B0%D0%BD%D0%BA%D0%BE%D0%B2%202025%20%D0%B3%D0%BE%D0%B4%D0%B0/1399231#7
8. People’s Bank of China. China Financial Stability Report 2024. Beijing: PBC, 2024.
9. Bank of Japan. Financial System Report 2024. Tokyo: Bank of Japan, 2024.